International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNING ROLI VA TASNIFI

Raxmatullayev Alimardon Turamuradovich
Samarqand iqtisodiyot va servis institutining mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni investitsiyalarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Xususan, investitsiyalar bilan bog‘liq jarayonlar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi. Demak, yuksalishga yuz tutgan, rivojlangan mamlakatlar safidan o‘rin olishga intilayotgan bizning mamlakatimiz uchun ham investitsiya bilan bog‘liq muammolar o‘ta dolzarb hisoblanadi. Maqolada muallif turizmni innovatsion rivojlantirishda investitsiyalarning rolini bayon etgan va tasniflarini keltirgan .

KALIT SO‘ZLAR: turizm, iqtisodiyot, , innovatsiya, servis, xizmat, investitsiya, mulk, moliya, intekllektual, investitsion resurslar .

Investisiyalarning nazariy va amaliy muammolarini hal etish nafaqat moddiy ishlab chiqarish, balki nomoddiy soha, jumladan turizmni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki turizm sohasi mamlakat milliy iqtisodiyoti, uning alohida mintaqalarining boy tarixiy-madaniy salohiyatidan unumli foydalanishning muhim omili, ularning ijobiy samarasini bir necha barobar ko‘paytiruvchi multiplikator hisoblanadi. Lekin turizm sohasini jadal rivojlantirishning dolzarb muammolarini muvaffaqiyatli hal etish uchun avvalo transport, ijtimoiy va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmasi, rekreasion xududlarda xizmat ko‘rsatish, yo‘l bo‘ylari infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish zarur. Miqdor va sifat jihatidan tez rivojlantirish davlat makroiqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan turizm ko‘pdan-ko‘p yangi turistik obyektlarni yaratishni, amal qilayotgan obyektlarni modernizasiyalashni, ularni yangi texnika va uskunalar bilan jihozlashni, turistik bozor va iste’molchilar talabidan kelib chiqqan holda yangi turistik mahsulot va xizmat turlari bilan boyitishni taqozo etadi. Tabiiyki, bularning hammasi katta moliyaviy xarajatlarni, salmoqli investitsiyalarni talab etadi. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, turizmdan tushgan bevosita va bilvosita daromadlar uni rivojlantirish xarajatlarini juda tez rivojlanishining eng muhim vositalaridan biriga aylantiradi.

Turizmning hozirgi holatini baholashda, shuni alohida qayd etish muhimki, O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to‘liq qondira

olmayapti. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan sharoitda turistlar oqimini va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko‘paytirish imkoni mavjud emas. Bundan kelib chiqqan holda, infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishini ta’minlash bilan birga, mamlakat imidjini ham shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda va rasmiy hujjatlarda innovatsion investitsiya sohasiga nisbatan “moliyalash” o‘rniga “investitsiyalash” tushunchasi keng qo‘llanilmoqda, ba’zi mualliflar esa bu tushunchalarni tenglashtirmoqdalar. O‘zbekiston va xorijiy olimlar turizmni rivojlantirishda investitsiyalar bilan bog‘liq muammolar doirasida uning turli jihatlari bilan shug‘ullanganlar. Masalan, M.B.Birjakov, V.S.Senin, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiylar asarlarida asosan investitsiyalash bo‘lsa, V.S.Bogolyubov va S.A.Быстровlar tadqiqotlarida investitsiyalashning turizm bilan aloqador bo‘lgan jihatlari qisman ko‘rsatib o‘tilgan. M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.T.Tuxliyevlar tadqiqotlarida mamlakatimizning turistik salohiyatidan foydalanish hamda investitsiyalashning roli borasida masalalari yoritilgan. Ammo mamlakatimizda mavjud turistik resurslardan foydalanishda investitsiyalarning o‘rni, turistik resurslarga investitsiyalarni keng ko‘lamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari deyarli o‘rganilmagan. Bular, o‘z navbatida, turizmni innovatsion rivojlantirishda investitsiyalarni rolini ko‘rsatish va samarali foydalanishda uning strategiyasiga bag‘ishlangan mavzuni tadqiq qilishga asos bo‘ldi. Yana bir holat ular o‘z ishlarida “innovatsion faoliyatning moliyaviy ta’minoti” tushunchasining talqinlarini keltirib o‘tishmagan. Kengaytirilgan ishlab chiqarishga moliyaviy hamda nomoliyaviy sarflar jarayoni iqtisodiyotga doir adabiyotlarda va qonunchilikda “investitsiyalash” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Nazariy izlanishlar jarayonida biz moliyaviy ta’minot kapitalni jalb qilish, taqsimlash, undan foydalanish va risk kapitallari bozorida ularni boshqaruvga oid faoliyatni belgilaydi, degan xulosaga keldik. Innovasion loyihalarni investitsiyalash tizimi innovatsion dasturlar va loyihalarni, ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy ishlanmalarni yaratish hamda amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiyalarni takomillashtirish, mamlakatda yoki mintaqalarda innovatsion faollikni oshirishga ko‘maklashuvchi innovatsion infratuzilmani shakllantirishga mo‘ljallangan moliyalashtirishning manbalari, usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda investitsion muhitning yaxshilanishiga mustaqillik yillarida investitsiya jarayonining sezilarli darajada faollashuvi va 2023 yilda mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 189924,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Shundan, 35614,5 mlrd. so‘m davlat sektoriga, 154309,8 mlrd. so‘m nodavlat sektoriga to‘g‘ri keladi. 2023 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi respublika byudjetiga 7,6 foizni, suv ta’minoti va kanalizasiya tizimlarini rivojlantirish jag‘armasi 0,9 foizni, korxona va aholiga 29,3 foizni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lariga 13,1 foizni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlariga 19,6 foizni, respublika kafolati ostidagi kreditlar 14,7 foizni, boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 11,4 foizni, tiklanish va taraqqiyotga 3,4 foizni tashkil etgan[1]. Shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, O‘zbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 40 % qismi jamlangan.

Yirik infratuzilma salohiyatiga to‘rt viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahri ega. Turizmni rivojlantirish uchun mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash bilan birga, har bir viloyatning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish muhimdir. Bularning barchasi yirik moliyaviy xarajatlarni, ya’ni investitsiyalarni amalga oshirishni zaruriyat qilib qo‘yadi deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlarimizning natijalari investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud degan xulosaga kelishga asos bo‘ldi. Shunday qilib, “investitsiya” deganda kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan quyiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intekllektual boyliklar tushuniladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar – mulkchilikning har xil ko‘rinishlaridagi moddiy moliyaviy va nomoddiy boyliklarni ijtimoiy-iqtisodiy yoki samara (daromad) olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

Umumlashtirgan holda shuni qayd qilmoqchimizki, yuqorida keltirilmagan va vaqtni tejash maqsadida keltirilgan boshqa ta’rif va talqinlarning birortasi ham ushbu murakkab, lekin bizning tadqiqotimiz nuqtai-nazaridan o‘ta ahamiyatli tushunchaning mohiyatini to‘la ochib berishga da’vogarlik qilolmaydi. Ta’riflarning xilma-xilligi, ko‘p hollarda ularning mazmun jihatdan bir-biridan keskin farqlanishi, nazariyotchilarda ushbu tushunchaga nisbatan yakdillikning yo‘qligi investitsion faoliyat bilan bog‘liq ilmiy muammolarni yechishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi, xato va kamchiliklarga yo‘l quyishga sabab bo‘lishi mumkin.

Lekin shuni ham alohida ta’kidlash joizki, investitsiya tushunchasiga yagona va to‘liq ta’rif berish juda mushkul. Ushbuni quyidagilar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, investitsiya tushunchasi keng qamrovli, o‘ta murakkab iqtisodiy tushuncha. Ikkinchidan, investitsiya o‘zaro dinamik bog‘liklikda bo‘lgan turli jarayonlarni o‘zida aks ettiradi. Uchinchidan, investitsiya iqtisodiyot fanining turli qismlarida hamda amaliy faoliyatning turli darajalarida (mikro, mezo va makro) o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zahiralarning o‘sishiga qilinadigan harajatlardan tashkil topadigan yalpi xarajatlarning bir qismi hisoblanadi. Investisiyalar – bu jamiyat tomonidan joriy davrda iste’mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o‘sishini ta’minlovchi YaIMning bir qismidir.

Ishlab chiqarish nazariyasi va umuman makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo‘shib hisoblaganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni maqsadli joylashtirish orqali kelajakda daromad olish tushuniladi.

Iqtisodiy resurslar inson yashashi va kamol topishi uchun zarur bo‘lgan noz-ne’matlarni (tovar va xizmatlarni) ishlab chiqarishni tashkil etish va amalga oshirishning zaruriy shartidir. Tanlangan tadqiqot mavzusi nuqtai- nazaridan investitsion resurslar, ularning mazmuni, mohiyati, ahamiyati va boshqa muhim jihatlarini batafsil bayon etish muhim ahamiyatga ega.

Birinchi navbatda “investitsion resurslar” tushunchasining mohiyatini tushunib yetish, uning mazmunini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “investitsion resurslar” tushunchasini turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etilgan, bu esa uning iqtisodiy mazmuni ham to‘la aniqlanmaganligidan dalolat beradi.

Investision resurslarning u yoki bu jihatlari xorijiy tadqiqotchilar va mahalliy iqtisodchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Ularni tanqidiy o‘rganish “investitsiya” tushunchasining o‘zini talqin etishda xilma-xil yondashuv va nuqtai-nazarlar borligini ko‘rsatdi. Har qanday ilmiy tushunchaga, uning mohiyatiga nisbatan turli-tuman qarashlar va fikr mulohazalarning bo‘lishligi tabiiy. Lekin tadqiqot nuqtalaridan ularni chuqur o‘rganish, ilmiy tahlil qilish asosida masalaning tub mohiyatiga yetib borishga intilish muhim.

Investisiya” tushunchasining ta’rifi amaldagi qonunchilik darajasida e’tirof etilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi “Investisiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda investitsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “**Investisiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar**” .

Investisiyaga oid nazariy qarashlar xorijiy adabiyotlarda ancha keng yoritilgan. Xorijlik iqtisodchi olimlardan U.Sharp, K.R.Makkonell, S.L.Bryu kabilar investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turlicha ta’riflarni bayon etishgan. G’arb mamlakatlari iqtisodchilari investitsiyalarni ko‘proq fond bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar sifatida qaraydilar. Sababi

iqtisodiyoti yuksak rivojlangan G'arb davlatlarida investitsiyalarning asosiy qismi aynan qimmatli qog‘ozlarda mujassamlashgan bo‘lib, ularni ishlab chiqarishni moliyalashtirishda yetakchi ahamiyat kasb etadilar. Bundan farqli o‘laroq, bizda (boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ham) sarmoya sarflarining asosiy qismi real investitsiyalar sarflariga to‘g‘ri keladi, ushbu xulosamizning isboti sifatida ayrim ta'limotlarni keltirib o‘tamiz.

G'arb iqtisodchilarining nufuzli adabiyotlarida "investitsiya" tushunchasi bilan "kapital qo‘yilma" tushunchasini albatta farqlash lozimligi to‘g‘risida ilmiy qarashlar, ayniqsa, bizning mamlakatimizda investitsiyalar bilan bog‘liq nazariy qarashlarni takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi ushbu tushuncha biz uchun nisbatan ancha yangi tushuncha bo‘lib, fan tili atamalari ro‘yxatiga o‘tgan asrning oxirlarida kiritildi. Natijada murakkab iqtisodiy vaziyat va transformasion jarayonlar ta'siri ostida investitsiya tushunchasi to‘g‘risida aniq tasavvur va ilmiy asoslangan qarashlar hali shakllanganicha yo‘q. Ushbu jarayonlarning dastlabki bosqichlarida investitsiya tushunchasi biz uchun yaxshi tanish bo‘lgan an'anaviy kapital qo‘yilmalar tushunchasi sifatida qabul qilindi.

Birinchi yondashuvga muvofiq, investitsiyalar xo‘jalik subyektlarining asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, ularni ko‘paytirish hamda takomillashtirishga qaratilgan sarf-xarajatlari sifatida qaraladi. Demak, investitsiyalash ishlab chiqarish jarayonlari boshlanishidan oldin amalga oshadi. Bizningcha, bunday holat investitsiya jarayonining mantig‘ini va ketma-ketligini qo‘pol tarzda buzilishini taqozo etadi, investitsiyalar harakat maydonini va mazmunini sun'iy ravishda qisqartirishga olib keladi. Vaholanki, investitsion jarayon uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, asosiy fondlar doiraviy harakatining barcha bosqichlari uchun ahamiyatlidir.

Ikkinchi yondashuv investitsiyalarni asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning vositalari sifatida talqin etadi. Bizning nazarimizda, investitsion jarayonlarning davomiyligini va mantiqiy ketma-ketligini e'tiborga oladi. Lekin, ayni paytda, resursli yondashuvda kapitalning investitsion faoliyat mahsuliga aylanishi bo‘yicha keyingi harakatlarini inkor etadi.

Bizningcha, yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, har ikkala yondashuvda ham tahlil obyektini statistik tavsiflash kech bo‘lib, ushbu murakkab tushunchaning faqat bir jihatini: sarf-harajatlar yoki resurs manbalarini o‘zida aks ettiradi. Bu holat investitsion faoliyatning barcha qirralarini o‘zida aks ettiruvchi yaxlit jarayon sifatida namoyon bo‘lishiga xalaqit beradi. Bizning tasavvurlarimizda investitsiya o‘zaro bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liq.

Lorens Dj.Gitman va Maykl D.Djonkning "Investisiyalash asoslari" kitobida investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beriladi: "Investisiya moliyaviy natijalar olishni ko‘zlab aksiya va obligasiyalarni sotib olishni anglatadi". Bular real aktivlarni belgilaydi, masalan, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun mashinalarni olishni nazarda tutadi. Umuman, keng ma'noda, investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini o‘stirish va rivojlantirishni moliyalashtirish uchun zarur bo‘ladigan mexanizmlarni ta'minlaydi.

Xorijiy adabiyot sahifalarida investitsiya atamasiga nisbatan tadqiqotchilarning juda ixcham va shu bilan birga mazmunli tavsiflarini ko‘plab uchratish mumkin. Investisiyalar – qo‘yilmaning kelgusida o‘sish maqsadida bugungi iste'moldan voz kechish ham e'tirof etiladi. Investisiya – ishlab chiqarish davri davomida paydo bo‘lgan kapital qo‘yilma qiymatining joriy o‘sishi. Investisiyalar atamasini kapitalning kelgusida ko‘payishi maqsadida uning turli xil shaklda joylashtirilishi sifatida belgilash mumkin". "Kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdir" kabilar shular jumlasidandir. Ushbu ta'riflarda ular haqli ravishda investitsiya atamasining mazmunini kelajakda foyda (daromad) olish maqsadida bugun pul bilan "xayrlashish"da ko‘radilar.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, investitsiya tushunchasiga oid ilmiy qarashlarni o‘rganish, tahlil qilish faqat bugungi kunda bu borada mavjud yondashuv va nuqtai-nazarlarni o‘rganish asosida ularni umumlashtirish va mazmuniga aniqlik kiritish bilan cheklanmaydi. Bu muhim ish bilan bir qatorda ushbu yo‘nalishdagi nazariy tadqiqotlarning dolzarblashuvi iqtisodiy yuksalish natijasida tabiiy tarzda yuzaga kelgan ehtiyojlarni qisqartirish zarurati bilan belgilanadi.

Boshqacha qilib aytganda, investitsiya atamasining iqtisodiy mohiyatiga hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining talablari asosida tamoman yangi innovatsion ahamiyat kasb etuvchi metodologik yondashuvlarni qo‘llash lozim bo‘ladi. Bu birinchi navbatda, investitsion jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning tobora murakkablashib borayotganligi, investitsiya manbalari turlarining kuchayishi, investitsiya bozorlarining kengayishi va boshqa obyektiv jarayonlarning kuchayishida o‘z ifodasini topadi.

“Investisiya” va “investitsion resurslar” tushunchalariga oid yuqorida bayon etilgan barcha ilmiy qarash va fikr-mulohazalarni umumlashtirib, ularning mohiyati va mazmunini ochishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlarini va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab berishga harakat qildik. Ularni quyidagilar bilan izohlamoqchimiz:

Birinchidan, investitsion resurslarni ishlab chiqarishni tashkil etish hamda amalga oshirish jarayonlarida faol ishtirok etib, investorga ijobiy samara berish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, investitsion resurslar shakllarining turli-tumanligi bilan o‘ziga xos bo‘lib, ularning har biridan foydalanish imkoniyatlari va pirovard natijalari ham keskin farqlanadi.

Uchinchidan, investitsion resurslar bozor munosabatlari obyekti sifatida oldi-sotdi munosabatlarida ishtirok etadi.

To‘rtinchidan, investitsion resurslar tadbirkorlik daromadlarini shakllantirishning muhim manbai sifatida risk omilining kuchli ta’siri ostida bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor investitsion resurslar riskidan tamoman kafolatlanmagan. Risk zarar ko‘rishdan tortib, investitsiyalangan kapitaldan batamom mahrum bo‘lishligi darajada sodir bo‘lishi mumkin.

Bizning nazarimizda, O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan turizmni jadal rivojlantirish va uni milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish konsepsiyasini hayotga muvaffaqiyatli tadbiq etishning eng murakkab va og‘ir bo‘g‘ini – bu investitsion resurslar ta’minotidir. Bizning ushbu qat’iy xulosamizning boisi shundaki, iqtisodiy o‘sishga qaratilgan har qanday ijobiy konsepsiyani amalga oshirishning ikkita asosiy sharti bor: konsepsiyani amalga oshirish imkoniyatlari, ikkinchisi esa uni amalga oshirish zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning mavjudligi. O‘zbekistonda turizm sohasini tez sur’atlar bilan rivojlantirish uchun yetarli darajada turistik salohiyat va qulay sharoitlar mavjud. Lekin mamlakatda turizmni tez sur’atlar bilan rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda kerakli investitsion resurslarni jalb etish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu xulosamizga asos sifatida quyidagilarni keltirmoqchimiz:

- turizmga yo‘naltirilgan infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi (transport, ijtimoiy, injeneriya, axborot-kommunikasiya, kommunal xizmatlar) va uni davr talablari darajasiga ko‘tarish zarurati;
- mexmonxona xo‘jaligi xizmatlari sifatining hozirgi zamon standartlari darajasida emasligi;
- turizm sohasini, tarkibidagi korxona va tashkilotlarni samarali boshqarish va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan barcha muammo va to‘siqlarni bartaraf etishga qadar bo‘lgan yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi;
- innovatsion turmahsulotlarni yaratish va ularning turistik xizmatlar bozorida muvaffaqiyatli harakatlarini ta’minlash bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan strategiyaning yo‘qligi.

Tabiiyki, yuqorida bayon etilgan kamchiliklarni bartaraf etish katta investitsion sarf xarajatlar evaziga amalga oshishi mumkin. O‘zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish zamonaviy yo‘llar qurish, aeroport, avtomobil turar joylari, raqobatbardosh transport vositalari, sifatli ovqatlanish korxonalari, esdalik va antiqa (antikvar) buyumlar bozorini shakllantirish, mehmonxonalarni qulay joylashtirish, kemping, turbaza va boshqa sayyohlik majmualari sonini ko‘paytirish bilan bog‘liq. Bularning barchasi investitsion resurslarga talabni yanada kuchaytirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Названы главные проблемы развития туризма в Узбекистане: эксперты подготовили Стратегию развития отрасли. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://podrobno.uz
2. Биржаков М.Б. Введение в туризм. – М–СПб.: «Издательский Дом ГЕРДА», 2014. – 544 с.;
3. Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. − М.: Академия, 2013. – 192 с.;
4. Быстров С.А., Воронцова М.Г. Туризм: макроэкономика и микроэкономика. – СПб.: «Издательский дом Герда», 2008. – 464 с.;
5. Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристский бизнес. Изд. 2-е. – Ростов н/Д.: Феникс, 2009. – 637 с.;
6. Севастьянова С.А. Региональное планирование развития туризма и гостиничного хозяйства. учеб. пособ. – М.: КНОРУС, 2007. − 256 с.;
7. Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма России в современных условиях: учеб.пособ. – М.: КНОРУС, 2007. – 416 с.;
8. Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. Маърузалар курси. – Самарқанд: СамИСИ, – 2006. – 156 б.;
9. Тухлиев Н.Т., Абдуллаева Т. Менежмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: ГНИ “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 368 с.;
10. Тухлиев И.С. ва бошқалар. Туризм асослари: Ўқув қўлланма. – Самарқанд, СамИСИ, 2010. − 247 б.;
11. Мухаммедов М.М., Рахматов Ф. Туризм соҳасида бозор муносабатларининг шаклланиши ва унинг тармоқ самарадорлиги кўрсатгичларига таъсири. // Сервис ва туризм: Бошқариш ва ривожлантириш муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Самарқанд, 2007, 4-7 сентябр.